

## TALABALARDA KASBIY PERSEPSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Jumoboyeva Muslima Xusanboy qizi**

**Dolzarbli.** Zamonaviy mehnat bozori oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan rivojlangan moslashuvchan ko‘nikmalarni (soft skills) talab qilmoqda. Ularning negizini esa kasbiy persepsiya, ya’ni muloqotdagi hamkorlarning psixologik holatini aniq idrok etish va baholash qobiliyati tashkil etadi [1]. Biroq an’anaviy ta’lim hamon qat’iy ko‘nikmalarga (hard skills) yo‘naltirilgan bo‘lib, shu sababli bo‘lajak mutaxassislarning perseptiv qobiliyatlari stixiyali tarzda rivojlanmoqda [2]. Natijada amaliyot talablari bilan talabalarni tayyorlash jarayoni o‘rtasida keskin nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda [3,4].

**Maqsadi:** talabalarda kasbiy persepsiyani shakllantirishga qaratilgan zamonaviy, ilmiy asoslangan texnologiyalarni tizimlashtirish.

**Metodologiya.** Tadqiqot so‘nggi yillardagi pedagogik va ijtimoiy psixologiya sohasiga oid mahalliy ilmiy nashrlarni tanqidiy-tahliliy o‘rganish hamda qiyosiy tahlil qilish metodiga asoslanadi.

**Natijalar.** Zamonaviy yondashuvlarni tizimlashtirish kasbiy persepsiyani rivojlantirishning mavjud usullarini yagona texnologik maydonga birlashtirish imkonini berdi. Uning an’anaviy asosi hamon empatiya va boshqa insonning nuqtai nazarini qabul qilish qobiliyatini bevosita rivojlantiradigan ijtimoiy-psixologik treninglar va interaktiv rolli o‘yinlardan iborat [5]. Ular bilan birga talabalarga xavfsiz auditoriya sharoitida noverbal muloqotni batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi keys-metodlar hamda video tahlil texnologiyalaridan foydalaniladi [4]. Kasbiy faoliyatning murakkab vaziyatlarini imitatsiya qilish uchun ta’lim jarayoniga raqamli simulyatorlar va VR texnologiyalarini joriy etish oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi hisoblanadi. Biroq, taklif etilgan har qanday texnikaning samaradorligi asosida o‘quv jarayonida maqsadli refleksiyaning amalga oshirish yotadi, aks holda perseptiv tajriba faoliyat predmetiga oid yuzaki bilimligicha qolaveradi [2,3].

**Xulosa.** Talabalarning kasbiy persepsiyasini rivojlantirish stixiyali shakllanishdan maqsadli uzluksiz texnologiyalarni joriy etishga o‘tishni talab qiladi. Kommunikativ vaziyatlarni raqamli modellashtirish imkoniyatlari bilan klassik interaktiv usullarni birlashtiruvchi yondashuv eng istiqbolli hisoblanadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Бодалев А. А. Восприятие и понимание человека человеком. — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1982. — 200 с.
2. Вербицкий А. А. Теория и технологии контекстного образования. — М.: МПГУ, 2017. — 268 с.
3. Зеер Э. Ф. Психология профессионального развития. — М.: Академия, 2009. — 240 с.
4. Лабунская В. А. Экспрессия человека: общение и межличностное познание. — Ростов н/Д: Феникс, 1999. — 608 с.
5. Панфилова А. П. Инновационные педагогические технологии: Активное обучение. — М.: Академия, 2009. — 192 с.